



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

G'ALLAOROL TUMANINING GEOGRAFIK O'RNI VA ISHLAB CHIQRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING AHAMIYATI

Umarova Umida Mamirovna

magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy unversiteti

e-mail: umarovau66@gmail.com

Annotasiya: Har birimiz uchun muqaddas hisoblanuvchi tug'ilib o'sgan go'sha, unib o'sib kamol topgan joyimiz bu o'zimizning qishlog'imiz, tumanimiz hisoblanadi. Har bir inson o'zini yashab turagan hududini geografik jihatdan har tomonlama bilishi shart hisoblanadi. Ayniqsa, ilk qadamlarimizni bosgan tuproqlarimiz, o'zimizni hayot kechirishimiz uchun foydalaniladigan barcha sohalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak. Shularni barchasini hisobga olib qalbimda vatanparvarlik hissi jo'sh urgan holda G'allaorol tumanini kompleks o'rganishga qaror qildim.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad G'allaorol tumanining iqtisodiy jihatdan o'rganish, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiyotidagi asosiy yetakchi tarmoqlari, zavod va fabrikalari, turizm tarmoqlarini o'rganish.

Kalit so'zlar: demografiya, millat, shahar, iqtisodiy omil, tabiiy omil, turizm, ekoturizm, rekreatsiya.

GEOGRAPHICAL PLACE OF GALLAOROL DISTRICT AND THE ROLE OF AGRICULTURE IN PRODUCTION

Umarova Umida Mamirovna

Annotation: The place where we were born and grew up, which is sacred to each of us, is our village, our district. Everyone must know the geographical area in which they live. In particular, we need to be aware of the soils we have taken our first steps in, all the areas they use to sustain themselves. With all this in mind, with a sense of patriotism in my heart, I decided to make a comprehensive study of Parkent district.

The main purpose of this study is to study the economic situation in Gallaorol district, its productive forces, the main sectors of the economy, factories and plants, tourism.

Keywords: demography, nation, city, economic factor, natural factor, tourism, ecotourism, recreation.

O'zining go'zal va takrorlanmas tabiati, mo'tadil iqlimi bilan mashhur bo'lgan G'allaorol tumani va uning atrofidagi hududlar qadimdan aholi manzilgohlaridan biri bo'lgan.

G'allaorol tumani – Jizzax viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. 1931-yilgacha Yangiqo'rg'on tumani deb atalgan. Geografik o'rniga ko'ra

G'allaorol tumani Jizzax viloyatining g'arbiy, janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Shimoldan Forish, sharqdan Jizzax, janubdan Baxmal tumanlari, janubi-g'arb va g'arbdan Samarqand viloyati bilan chegaradosh.

G'allaorol tumanining markaziy va g'arbiy qismi tekislik, shimoliy va shimoli-g'arbiy qismi qir, adir va tog'lardan iborat. Shimoldan Nurota tizmalari, sharqdan Molguzar tog'i bilan o'ralgan. G'allaorol hududining katta qismini uning markaziy qismidan shimolga 380-400 metrdan 1600-1900 metrgacha ko'tarilib boruvchi lyoss va sariq tuproqli qatlamdan iborat tekislik, pasttekislik tashkil qiladi. Sangzor daryosi xosil qilgan bu tekislik Nurota tog' etaklariga borib taqaladi. Foydali qazilmalari qo'rg'oshin, rux, oltin, volfram, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qum, shag'al, gips, granit, ohaktosh va boshqa turli qurilish materiallari mavjud, shifobaxsh mineral suv manbayi bor.

Iqlimi keskin kontinental, yozi quruq, qishi sovuq. Yanvarning o'rtacha harorati -2° , iyulniki $+32^{\circ}$. Yillik yog'in miqdori 326 mm. Vegetatsiya davri 240 kun. Tuproqlari sariq tuproq, lyosslardan iborat. Markaziy va shimoliy qismidagi adirlarning tuprog'i lyoss ustida hosil bo'lgan bo'z, och bo'z, tipik bo'z tuproq. Soylik, jar ko'p. Tuman hududidan Sangzor daryosi oqib o'tadi.

G'allaorol shahri tumanning ma'muriy markazi hisoblanadi. Maydoni 1,95 ming km^2 . Aholisi 178,0 ming kishi (2021). Aholining o'rtacha zichligi 1 km^2 ga 91,3 kishi. Tumanda 1 shahar (G'allaorol), 2 shaharcha (Marjonbuloq, Qo'ytosh), 11 qishloq fuqarolari yig'ini (Buloqboshi, Guliston, Ittifoq, Ko'kbuloq, Madaniyat, Mirzabuloq, Mo'ltob, Mulkush, Tozaurug', Qipchoqsoy, G'o'bdin) bor. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. G'allaorol tumanda Oydinsoy (mil. avv. I asr.), Qo'ng'irtepa, Shaxidtepa (I asr), Almantepa, Jalmantepa, Lapaktepa, Pardakultepa, Nushkent kabi tarixiy arxeologik yodgorliklar bor.



1-rasm. G'allaorol tumani xaritasi

G'allaorol tuman iqtisodiyoti meva sabzovot, chorvachilik, bog 'dorchilik, yengil sanoat sohalariga ixtisoslashgan. Tuman hududidan Katta O'zbekiston trakti va tezyurar Toshkent-Samarqand elektr poyezdi tuman hududidan o'tadi.

G'allaorol tumanida Marjonbuloq va Qo'ytosh volfram-molibden konlari, meva-konserva, sharob ishlab chiqarish korxonasi, parrandachilik aksiyadorlik birlashmasi, avtokorxonasi, sutni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, paxta tozalash, g'isht zavodlari bor. 230 ga yaqin firma, o'rta biznes, kichik korxonasi, mikrofirmalar faoliyat ko'rsatadi. "G'allaorol-Iordaniya", "G'allaorol-Turkiya", "G'allaorol-Belogorsk", "Vollastonit" (Qo'ytoshda) qo'shma korxonalarini ishlab turibdi.

Qishloq xo'jaligida g'allachilik, bog 'dorchilik, tokchilik, chorvachilik (shu jumladan, qorako'lchilik) rivojlangan. Ekin maydonlariga don, sabzavot, kartoshka, poliz va ozuqa ekinlari ekiladi. Shirkat, fermer xo'jaliklari, o'rmon xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi, urug'chilik firmasi va boshqalar bor. Tumandagi jamoa va shaxsiy xo'jaliklarda qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi. 2021-yil 1-oktabr holatida yirik shohli qoramollar bosh soni – 159,4 ming bosh.

G'allaorol tumanining shirin-shakar uzumi va mevalari qadimdan mashhur. Uzumchilik bilan bog 'dorchilik ham tuman dehqonlarining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. G'allaorol uzumlariga bo'lgan talab tuqori darajada hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda G'allaorol tumanining qulay geografik joylashishi, rivojlangan qulay magistral yo'llari, xushhavo iqlimi, toza ekologik sharoiti, yuqori

sifatli qishloq qishloq xo'jalik mahsulotlari, malakali mutaxassislar zaxirasi, muhandislik inshootlari bilan yetarli darajada ta'minlanganligi bu yerda raqobatdosh, eksportbop mahsulotlar yetkazish korxonalari va qo'shma korxonalar qurish, sayyohlik va dam olish maskanlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tobora ortib borayotgani ham G'allaorol tumanining boshqa tumanlardan ajralib turishiga asosiy omil bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'allaorol tumanining 2021 pasporti.
2. Soliyev. A.S..Tashtayeva.S.K. Egamberdiyeva M.M. "Shaharlar geografisi". O'quv qo'llanma.-Toshkent «Barkamol fayz media», 2018 y
3. Hakimov Q., G'o'dalov M. jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax. 2004
4. www. ziyo.uz